OTA-ONALARNING TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDAGI ISHTIROKI

Jumaniyozov Mansurbek Shavkatbay o‘g‘li
Xorazm viloyat Xiva tuman kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya

Bola tarbiyasi nozik niholki uni parvarish qilish ulkan mehnat va sabr bilan samarasi yuqori natija olib keladigan vaqt talab qiladi. Biz hozir ana shunday bola deymizmi yoki farzand deymizmi uni tarbiyalash yo‘lida ketayabmiz. A.Avloniy bobomiz aytganiday “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot” deganiday tarbiya yo‘lida biz yo jon fido qilishimiz yo hayotda yengilmasdan yashashimiz kerakligi takidlab o‘tilayabdi. Biz ushbu maqolada ana shunday dolzarb masalani tahlil qilishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Ota-ona, bola, oila, kitob, ta’lim-tarbiya.

Аннотация

Воспитание ребенка – дело тонкое, и уход за ним требует большого труда и терпения, что принесет отличные результаты. Назовем ли мы его ребенком или ребенком, сейчас мы находимся на пути его воспитания. Как говорил наш дед А. Авлони, «Образование для нас – жизнь или смерть», подчеркивается, что мы должны либо жертвовать своей жизнью, либо жить непобежденными в жизни. Столь актуальный вопрос мы попытались разобрать в этой статье.

Ключевые слова: Родитель, ребенок, семья, книга, воспитание.

Annotation

Raising a child is a delicate matter, and caring for him requires a lot of work and patience, which will bring excellent results. Whether we call him a child or a child, we are now on the path of raising him. As our grandfather A. Avloni said, “Education is life or death for us”, it is emphasized that we must either sacrifice our lives or live undefeated in life. We tried to analyze such a topical issue in this article.

Key words: Parent, child, family, book, education.

Bolaning rivojlanish bosqichlari, kamoloti va barkamol bo‘lib voyaga yetishida oilada ota-onalarning pedagogik va psixologik munosabatlari asosiy rol o‘ynaydi. Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko‘paytirishdir. Insonlar avlodini ko‘paytirishgina emas jamiyatga sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni yetishtirib berishdan iborat. “Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, urf-odatlar, qadriyatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi desak bo‘ladi. Oilada to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolalarda ma’naviy va axloqiy tomonidan xislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini dunyoqarashini shakllantiradi, xulq-atvor madaniyatini, mehnatkash odamlar o‘z vazifasiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini tarbiyalaydi. Ota-onalar bolani oilada bog‘chadan tortib oliy o‘quv yurtigacha bo‘lgan ta’lim jarayonida go‘zallikni qanday his qilishga, uni tushinishga, go‘zallikni barpo etishda ishtirok etish vazifalarini tarbiyalash estetik normalarga muvofiq holda va mustaqil holda ish bajarishni o‘rganishi amalga oshirgan bo‘lsa, oilada bu jarayon davom etishi shart.Oilada ota-ona bolaga to‘g‘ri tarbiya berish maqsadida bir qancha shart sharoitlarga amal qilish, ya’ni bolalarning turli faoliyatlarini tashkil qilish hayotdagi barcha go‘zalliklar tanishishga imkon beruvchi xisoblanadi. Ota- onalar har doim bolasi uchun o‘rnak bo‘lishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bola kattalarga taqlid qilib, bir qator ishlarini bajaradi, ya’ni o‘yinchoqlarini yig‘ishtiradi, gullarga suv quyadi, dasturxon yozadi va hokazo. Berilgan topshiriqlarni ota-onasi yoki katta opalari, akalarining ketidan ularning qilgan ishlarini to‘g‘ri bajarishga intilish, go‘zallikni his qilish xususiyatini rivojlantirishga harakat qiladi.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik ota-onalar turli sabablarga ko‘ra farzandlariga vaqt ajrata olmaydilar. Lekin ushbu masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, davr talabi bilan ko‘pchilik ota-onalar “Farzandingiz ta’limiga mablag‘ tiking!” shiori ostida ish tutib, bolalariga sifatli ta’lim–tarbiya berish to‘g‘risida qayg‘urmoqdalar. Bolaning rivojlanishida ota-onaning roli juda katta, ota-ona o‘z farzandining yoshiga qiziqishiga mos o‘yin, mashg‘ulot bilan band bo‘lgan vaqtda kuzatishga vaqt ajratsalar, farzandining nimaga qiziqishi borligini yaxshi bilib olishlari mumkin. Shu yo‘l orqali bolaning ko‘nikmalari, bilimi va o‘zini ifoda qilishi bilan tanishishi mumkin. Ota-onalar bolalari o‘ynayotganida bolaning tassvvuri, ijodkorligi, bilim va ko‘nikmalarini oshiruvchi o‘yinlarda bolalariga hamkor bo‘lishlari kerak. Ota-onalar o‘yin jarayonida bolalariga to‘g‘ri munosabat bildirishlari kerak ayni shu yo‘l bilan ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini, tashabbuskorligini kuchaytirishlari, bolasining bilim va malakasini rivojlantirishlari mumkin.

Ota-ona xar doim o‘z farzandingizni sevishingizni farzandingizga ko‘rsating. Ijobiy hissiyatlaringizni namoyon eting. Farzandingiz sizning aytgan gaplaringizni tushunmasa ham, sevgi, inkor va qayg‘u kabi hissiyotlarni tushunadi. Kattalar bolani yoqtirishini sevishini bildirishi, uchun bolaning qo‘lidan tutish juda muhim hisoblanadi. Ota-ona bola bilan muloqotga kirishayotganida, ona bolaning istagi va uning harakatiga e’tibor berib unga ergashishga harakat qilish kerak. Agar bola biror o‘yin yoki biror bir o‘yinchoqni o‘ynamoqchi bo‘lsa, uni yaxshilab tekshirib ko‘rinshiga imkon bering yoki uxlaydigan payti bo‘lib qolgan bo‘lsa-yu, lekin o‘ynagisi kelayotgan bo‘lsa, biroz qo‘yib bering. Shunda bola ona yoki otaning uni hurmat qilayotganini sezadi va uning tashabbusi inobatga olinayotganini ham his qiladi. Albatta, bu bolaning axloqiga oid tartiblar bilan me’yorda bo‘lishi kerak. Bolaning rivojlanishida yana bir muhim narsa bor, ya’ni bolaga chegaralashlardan tashqari, ma’lum bir me’yorda o‘zi xohlagan narsalarni qilishga erkinlik hamda imkon berilishi kerak, o‘shanda faqat boshqalar tomonidan aytiladigan narsalarni emas, o‘zi, xohlagan narsalarni qiladi. Shuning uchun bolaga quloq solib, unga ham ergashish ishonish kerak. Bola o‘zini o‘zi boshqarishda tanlashi va rejalashtirishida yo‘l –yo‘riqlarga ehtiyoj sezadi. Bu holatda, albatta, ota-ona bola bilan to‘g‘ri tushuntirish ishlarni olib borishi lozim. Ota-ona bosqichma-bosqich rejalashtirishni va nima uchun ba’zi narsalarni qilishga ruxsat etiladi-yu, ba’zilarini qilishga ruxsat etilmasligini tushintirib boriladi ota- ona tomonidan deyarli barcha ota-onalar o‘z farzandlarini bilishadi va yaxshi ko‘rishadi deb ishonishadi. Biroq ota–onalardan o‘zingizning bolangizning ijobiy tomonlarini aytib bering desangiz sanoqli ota-onalar bolasi bilan shug‘ullanadiganlar bolasining qanchalik qiziqishi nimaga iqtidori borligini ko‘rsatib berishadi. Buning sababi nimada ekanligini bilasizmi? Buning asosiy sabablaridan biri vaqt tanqisligi, ko‘pchilik ota-onalar ish bilan band, ko‘pchilik ishlash, oilani boqish uchun pul topish kerak oila ro‘zg‘orini tebratish kerak degan maqsadni qo‘yishadi. Kattalarning ko‘pchiligi farzandlarining qorni to‘q ustini but qilishni g‘amxo‘rlik va muhabbatni namoyon etish usuli deb biladi. Lekin bolaning ma’naviy – ahloqiy dunyosi qanday shakllanmoqda, u nimalar to‘g‘risida o‘ylayapti, nimaga qiziqyapti- biz buni bilishimiz kerak bolaga birinchi maktab oila ota-ona desak ham biz adashmaymiz chunki ota-bobolarimizdan qolgan maqol bor “qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb bekorga aytilmagan bola uyda ko‘rganini kattalarga taqlid qilish qolaversa texnikaning tez rivojlanishi natijasida telefonlarning bolalarimizning xayotida ko‘p narsalarni xulq atvorlarining o‘zgarishlariga xam salbiy ta’siri bo‘lmoqda desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki yosh ko‘pchilik ota-onalarimiz ertaklarni uyqudan oldin o‘qib berish va bolasidan ertak qaxramonlarining nomlarini so‘rab ertakning salbiy tomondagi qaxramonlarining ko‘rinishin so‘rash o‘rniga bolasiga tinchgina telefonini berib ertaklarni ko‘rgin menga savol berma uxlagin deb berib qo‘yadigan yosh ota- onalar yo‘q emas.

Har bir yosh oila o‘z oilasining o‘rgansa ota-onaning bilim darajasini oshirsa, ko‘plab bolasi uchun kitoblar olib bersa tug‘ilgan kunlarida kitoblar sovg‘a qilishni yaxshi yo‘lga qo‘ysa bola ma’naviy jihatdan bilimga boy bo‘ladi.

Afsuski bugungi kunda ayrim ota-onalar kelajakda farzandini moddiy jihatdan zo‘r ta’minlash, kiyinishida boshqa bolalardan ortda qolmasligi, uning to‘yini dabdabali o‘tkazishni orzu qilib ko‘proq mablag‘ ilinjida bolalarini ota-onasi, qarindoshi, hatto qo‘ni-qo‘shnisiga tashlab, o‘zlari boshqa yurtga ketayotgani sir emasligi xammamizga ma’lum. Buning natijasida bolalarga berib boriladigan ta’lim tarbiya ikkinchi yoki bo‘lmasa uchinchi darajaga tushib borayotganligi sir emas. Lekin ular farzandiga ayni tarbiya berish lozim bo‘lgan vaqtni yo‘qotayotganligi, eng achinarlisi, farzandi baxtini yo‘qotayotganini bilmaydi. Ota-ona o‘z farzandiga beradigan tarbiyani xech qachon boshqa kimsa bera olmasligini tushunib yetmaydi. Bilganida esa kech bo‘lishligi xammamizga ma’lum.

Bola, xoh u o‘g‘il yoki qiz bo‘lsin, ayni balog‘at yoshiga qadam qo‘yayotgan bir paytda uning tarbiyasini birovga ishonib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham tarbiya ishlariga hayot-mamot masalasi sifatida qarash zarur.

Ota-onalar farzandlari tarbiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlari xamda maktablar zimmasiga yuklab qo‘yishi yoki «Mening bolamdan yomonlik chiqmaydi», degan kayfiyatda bo‘lishi kerak emas.

Sir emaski xozirgi kunga kelib ba’zi bir ota-onalarimizning o‘zlari tarbiyaga muxtojligi kelajakka raxna solayotgan holatlardan biridir. Chunki xozirgi kunga kelib tamaki xamda alkogolli ichimliklarga ruju qo‘yayotgan yoshlarimiz bir talaygina. Buning sababi xam ota-onaning bolaga tug‘ilganidan boshlab beradigan tarbiyasiga borib taqaladi.

Shuningdek, bugun yana bir bor biz e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan salbiy holatlardan biri shundaki, Mehribonlik uylaridagi bolalarning aksariyati ota-onasi hayot, lekin ajrashgan. Bugun ular davlat qaramog‘ida, ota-ona mehri yo‘q. Shu o‘rinda xalqimizning “qush inida ko‘rganini qiladi” “mehr bergan mehr ko‘radi” degan hikmati yodga tushadi. Agarda biz bugun farzandlarimizga mehr ko‘rsatmasak, ta’lim-tarbiyasiga e’tibor bermasak erta bir kun o‘zimiz ularning mehriga zor bo‘lamiz. Bu hayotning achchiq haqiqati.

Xozirgi kunda ko‘pchilik ota-onalarning bolalarga yetarlicha ta’lim-tarbiya berolmasligini sabablaridan yana biri, ularning ongiga salbiy ta’sir etayotgan turli axborotlar, xususan, internetda tarqatilayotgan zo‘ravonlik va fahsh aks etgan ma’lumotlar bo‘lib, ularni ushbu ta’sirlardan juda ehtiyot qilishimiz lozim. Bundan tashqari bola yoshligidan telefondagi o‘yinlarga juda o‘ch bo‘lishi ota-ona bolam jim o‘tirsa bo‘ldi deb murg‘akkina go‘daklarga o‘z telefonini tutkazib qo‘yayotgani xam ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir etishi xech kimga sir emas.

Bolaning ta’lim tarbiyasiga onaning qornidanoq e’tibor berish, tug‘ilganidan boshlab ota-ona o‘z mas’uliyatlarini his qilgan holda o‘z farzandiga chiroyli ta’lim-tarbiya berib borishi bir kun kelib albatta o‘z mevasini beradi. Shunda ota-ona o‘z farzandidan kelajakda muqobil farzand bo‘lib, u xam o‘z farzandini o‘zidagi malaka va tajribalariga suyangan xolda tarbiya berganligidan faxrlansa arziydi.

Bolaning ertaga qanday odam bo‘lishi ota-ona nazorati va tarbiyasiga, mehriga bog‘liq. Allomalarning fikr va muloxazalariga asoslanib oilada ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirishda bilim manbai bo‘lgan kitobni sevish, uni o‘qish, o‘qish uchun uni tanlay olish va o‘qish madiniyatini bilish muxim asoslardan biridir.

Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Xalqimiz ilm va fan, adabiyot va san’atga oid nodir qo‘llanmalar, adabiyotlari bilan haqli ravishda faxralanadi. Dunyoning qaysi bir mashhur kutubxonasida bo‘lmang xalqimizning ulug‘ allomalari, tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarining qo‘lyozmalarini kitob holiga keltirib, boqiy umr bag‘ishlagan xattotlar, musavvirlar mehnatini ko‘rish mumkin. Oilada bolani kitobga nisbatan

qiziqtirishda, oilada ota-onaning kitobga bo‘lgan mexr tuyg‘usi shakllangan bo‘lsa, qo‘liga kitob olib o‘qisagina, o‘z farzandiga turli kitoblar o‘qib bersa kelajakka muhim bir tamal toshini qo‘yganligini anglab yetadi.

Bolaning yoshlik chog‘idayoq uning murg‘ak qalbiga kitobga nisbatan qiziqish, mehr uyg‘otish lozimki, u doimo kitobni sevsin, ardoqlasin, avaylasin, kitob ustida ishlashni bilsin. Men farzandimga kitob olib berdim, vazifamni bajardim degan xayollarni bir chetga xolda farzandi bilan birgalikda mutola qilsalar kelajak mevasi shirin bo‘ladi.

Shuni xam aloxida ta’kidlash lozimki, farzand tarbiyasida onaning mehri otaning talabchanligi, lozim bo‘lganda qattiqqo‘lligi bilan mushtarak bo‘lmog‘i kerak. Oilada ayniqsa otaning o‘rni beqiyos. Mamlakatimizda olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ko‘pgina oilalarda otaning mavqei ikkinchi darajaga tushib qolgan. Onaning o‘z erini mensimay qo‘yishi, bolalar oldida uni kamsitish, g‘ururini yerga urish hollariga tez-tez duch kelmoqdamiz. Bunday hollar farzandlar tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir etishi aniq. Otaning hurmat-izzatini joyiga qo‘ymaydigan farzand uyda ham, ko‘chada ham o‘z bilganidan qolmaydi. Shu sababli ham bizda qadim-qadimdan bola tarbiyasida otaning mavqei va obro‘si har doim juda baland bo‘lib kelgan. Ayol kishi xar doim eridan bir pog‘ona pasda bo‘lishi, o‘z jufti xaloli xurmatini xar doim joyiga qo‘yishi oilada sog‘lom muxitni shakllantiradi.

Shulardan kelib chiqib, har birimiz farzandlarimiz tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lishimiz, bu muhim masalada loqaydlik va beparvolikka yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. Bu borada, ayniqsa, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish eng avvalo, ota-onalarning oldida turgan ustuvor vazifadir. Boshqacha aytganda, har bir inson milliy qadriyatlarimizga ahamiyat qaratib, o‘z farzandi ongida axloqiy qadriyatlarni bolaligidanoq shakllantirib borishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

WORDLY KNOWLEDGE